



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MONOPOLIYAGA
QARSHI KURASHISH QO‘MITASI**

002343

B U Y R U Q

Toshkent shahri

“ 22 ” avgust 20 22 y.

№ 111-ICH

**O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga
qarshi kurashish qo‘mitasi markaziy
apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy
mansub tuzilmalarida kontragentlarni
o‘rganishga oid Yo‘riqnomani tasdiqlash
haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qaroriga muvofiq Qo‘mita tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilash, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish, shuningdek, Qo‘mita markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari tomonidan xarid qilish tartib-taomillarida ishtirokchilarni majburiy o‘rganishning asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalarida kontragentlarni o‘rganishga oid Yo‘riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qo‘mita markaziy apparatida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o‘tkazish uchun mas‘ul etib Ma‘muriy xo‘jalik bo‘limi (G‘afforov) belgilansin, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari mazkur yo‘nalish bo‘yicha tegishli mas‘ul xodimni belgilash choralari ko‘rsin.

3. Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish boshqarmasi (Nasirova), Qo‘mita markaziy apparati tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Yo‘riqnoma talablariga qat‘iy rioya qilinishini ta‘minlasin.

4. Devonxona (Ikramova) mazkur buyruqni Qo‘mita markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlarga yuborilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

O'zbekiston Respublikasi
Monopoliyaga qarshi kurashish
qo'mitasining 2022-yil 22-avgustdagi
111-ICH-sonli buyrug'iga
Ilova

**O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi
markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub
tuzilmalarida kontragentlarni o'rganishga oid
YO'RIQNOMA**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalari (keyingi o'rinlarda – Qo'mita tizimi) tomonidan xarid qilish tartib-taomillarida ishtirokchilarni majburiy o'rganishning (keyingi o'rinlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini o'rganish) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

2. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

benefitsiar mulkdor (yakuniy manfaatdor shaxs) - pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs;

ijrochi – kontragentlarni o'rganish uchun vakolatli bo'lgan Qo'mitaning tarkibiy bo'linmasi (Ichki audit xizmati);

kontragent – Qo'mitaning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

manfaatlar to'qnashuvi – bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatadigan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda uning shaxsiy manfaatdorligi bilan davlat xaridlari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatdir, shuningdek affillanganlikning mavjud bo'lishi;

mas'ul shaxs – O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan Qo'mita tizimida xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul etib belgilangan shaxs;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisining affillangan shaxsi – qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan va (yoki) xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi tomonidan qarorlar qabul qilishga ta'sir ko'rsatadigan, shu jumladan yozma kelishuv asosida ta'sir ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs, shuningdek xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisiga nisbatan shunday huquqqa ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

o'zaro manfaatdorlik - ikki yoki undan ortiq o'zaro affillanmagan yoki boshqa tarzda bog'liq bo'lmagan ommaviy savdolar ishtirokchilarning takliflarini ayni bir qonuniy vakil tomonidan taqdim etilishi:

ommaviy savdo ishtirokchilarining bir biridan bevosita yoki bilvosita subsidiya va boshqa moliyaviy ko'mak olishi bo'yicha kelishuvi mavjudligi, olayotganligi yoki olganligi:

ayni bir lotda ishtirok etayotgan ommaviy savdo ishtirokchilarning ta'sischilari yoki biri buyurtmachi yoki tashkilotchi yoxud elektron ommaviy savdolar operatori vakili yoki savdo (xarid) komissiyasi a'zosi, ikkinchisi esa, ommaviy savdo ishtirokchisining vakili yoki ta'sischisi bo'lgan jismoniy shaxslarning yaqin qarindoshlik rishtalarining mavjudligi:

ommaviy savdolar ishtirokchilari bilan yoki ishtirokchilar hamda buyurtmachi va (yoki) tashkilotchi va (yoki) elektron ommaviy savdolar operatori va (yoki) komissiya a'zosi bilan o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan uchinchi tomon orqali takliflar haqidagi axborotni bilish yoki takliflarga va (yoxud) qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'lishi.

tashabbuskor – xaridni amalga oshirish yuzasidan ish faoliyati doirasidagi ehtiyojlari uchun kerak bo'ladigan tovar (ish, xizmat) sotib olish uchun tegishli tartibda murojaat qiluvchi Qo'mita tizimi tarkibiy bo'linmalari;

shaxsiy manfaatdorlik – Qo'mita tizimi xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish.

yaqin qarindosh – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

3. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini o'rganishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Qo'mita tizimi xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilariga teng imkoniyatlarni ta'minlash;

davlat xaridlari subyektlari o'rtasida raqobatni va ularga nisbatan beg'arazlikni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish;

ishtirokchilarning oldindan til biriktirishini aniqlash;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

Kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

4. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini o'rganish xaridning ishtirokchilari, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi, savdolarni o'tkazishda raqobatga zid manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqaradigan o'zaro manfaatdorlik ehtimoli nuqtayi-nazaridan ham amalga oshiriladi.

5. O'rganish ushbu Yo'riqnomaning 7 va 8-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan xarid jarayonida shartnoma imzolanishidan avval, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

6. Ushbu Yo'riqnomaning 7-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, kontragentni o'rganish natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolashga yo'l qo'yilmaydi.

7. Elektron do'kon (Milliy do'kon) va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha kontragentlar o'rganilmaydi.

8. Shuningdek, o'rganish quyidagi davlat xaridlariga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan tovarning (ishning, xizmatning) davlat xaridi;

ilm-fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari kabi intellektual faoliyat natijalarining mazkur intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqqa ega bo'lgan yagona shaxsdan davlat xaridi;

narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.

II. O'rganishni boshlash tartibi, o'rganish uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

9. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini o'rganish xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning ma'qullanganligi to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar hamda amaldagi kontragentlarni shartnomani bajarish jarayonida amalga oshiriladi.

10. Kontragentlarni o'rganish davlat idoralarining elektron bazasidagi ma'lumotlar hamda ijrochi tomonidan hujjatlar mas'ul shaxsdan ushbu Yo'riqnomaning 14-bandida ko'rsatilgan hujjatlar asosida 5 (besh) kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

11. O'rganishni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkoni bo'lmagan taqdirda uning davomiyligi tegishli xizmat xatiga asosan Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 (uch) kundan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

12. Kontragentlarni o'rganish shoshilinch tartibda amalga oshirilishi zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda, mas'ul shaxs tomonidan o'rganishni o'tkazishning zarur muddatlari ko'rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch o'rganish o'tkazishga Xarid komissiyasi qarori asosida ruxsat beriladi.

13. Kontragentlarni o'rganish uchun hujjatlarni to'plash va taqdim qilish uchun tashabbuskor yoxud mas'ul shaxs (agar xarid to'g'ridan to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa) mas'ul bo'ladi.

14. Kontragentni o'rganish uchun ijrochiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

kontragentning o'zi ushbu Yo'riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda to'ldirgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

kontragentdan olingan taklif hujjatlar nusxasi, shu jumladan elektron shaklda;

kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (mavjud bo'lsa) nusxasi (nizomlar, ustav, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.).

15. Ushbu Yo'riqnomaning 14-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi. Kontragent korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor bu haqda o'rganishni amalga oshiradigan ijrochiga xabar beradi.

16. Taqdim etiladigan hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reyestrlari hujjatlari esa o'rganish sanasiga qadar qonunchilikda belgilangan kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

17. Kontragentni o'rganish uchun ma'lumotlar to'plash ijrochi tomonidan kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilar yo'qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni o'rganish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar, hujjatlarni kontragentdan olish imkoni bo'lmaganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirilgani) belgilari mavjud bo'lgan hollarda ijrochi kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosada tegishli belgi qo'yadi;

ochiq manbalardan hamda davlat organlarining elektron bazalaridan olingan ma'lumotlar. Ijrochi 2-ilovada ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnoma yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar;

Qo'mitaning ichki resurslari, shu jumladan, kontragentlarni o'rganish reyestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar.

18. Kontragentni o'rganish uchun foydalanilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

19. Zaruriyat bo'lganda ijrochi o'rganish davomida kontragentlarni joyiga chiqib (sayyor o'rganish) o'rganishi mumkin. Bu kabi o'rganishni o'tkazish uchun ijrochi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishishi lozim.

Sayyor o'rganish davomida tashkilot rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuziladi. Olingan hujjatlar nusxalarining va (yoki) kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan izohlari o'rganilayotgan kontragentning vakolatli vakili va ijrochi tomonidan imzolangan alohida ro'yxat ko'rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

III. Kontragentlarni o'rganish metodologiyasi

20. Kontragentlarni o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1) kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixini o'rganish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

v) soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

g) kontragentlarga nisbatan joriy etilgan to'lovga qobiliyatsizligining mavjud emasligi;

d) insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

2) kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tibori;

3) manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini o'rganish;

4) shaxsiy manfaatdorlik hamda affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi.

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha o'rganish o'tkazish majburiy hisoblanadi. O'rganish yo'nalishlari har bir alohida holatda xarid komissiyasi bilan kelishilgan holda kengaytirilishi mumkin. Bunda, o'rganish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo'lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

21. Ijrochi foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 23-25-bandlarda ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan kontragentning o'rganish natijalari to'g'risida xulosada ko'rsatilgan ma'lumotlarning bor-yo'qligini belgilaydi.

22. Shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan Qo'mitaning amaldagi kontragentni o'rganishda ijrochi bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o'zaro harakat tajribasi va uning Qo'mita bilan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishdagi halolligini o'rganadi.

Yangi kontragentni o'rganishda ijrochi kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to'g'risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarni tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu

kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini o'rganadi.

23. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan munosabatlar tarixini o'rganish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

Tadbirkorlik subyektlarining Yagona reyestrda kontragentning borligi;

kontragentning yuridik va amaldagi manzili;

kontragent rahbari va ta'sischilarining F.I.Sh.;

kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi;

kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

kontragentda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruxsatnomalar) mavjudligi;

Kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablag'lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va Qo'mita oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

Kontragent nomidan Qo'mita bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;

Kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligi;

Kontragentning so'nggi ikki yil ichida Qo'mita oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

Kontragentda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.

24. Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborini o'rganish doirasida ijrochi quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

kontragent, uning ta'sischilari, shu jumladan benefitsiar ta'sischilari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

kontragent, uning ta'sischilari yoki bosh direktor (boshqaruv organlari a'zolari) va boshqa rahbarlarning jinoiy tuzilmalar, ekstremistik va terroristik tashkilotlar bilan o'zaro aloqasi mavjud emasligi;

kontragentning ishbilarmonlik axloqiy me'yorlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarining mavjudligi;

kontragentning ta'sischilari yoki rahbarlariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida javobgarlikka tortilganligi haqidagi ma'lumot yoki (boshqaruv organlari a'zolari) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

kontragent, uning ta'sischilari yoki boshqa rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy ma'lumotlar mavjud emasligi;

25. Yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadbirkorlik subyektlari Yagona davlat reyestri ma'lumotlariga muvofiqligini o'rganadi. Ushbu o'rganish Kontragentning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, ijrochi manfaatlar to'qnashuvi, shu jumladan affillanganlikning mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha o'rganadi:

Kontragentning rahbari, yagona ta'sischisi yoki ta'sischilaridan biri, shu jumladan, benefitsiar – ushbu Xarid komissiyasining a'zosi bilan o'zaro manfaatdorlikka ega emasligi yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Qo'mitaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'lmagan aksiyalari yoki ulushlariga, yoki kontragentning Respublika fond birjasida yoki yana boshqa bir fond birjasida ommaviy aylanmada bo'lgan 5% dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Qo'mitaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo'lmasligi;

kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Qo'mitaning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

kontragent va Xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini o'rganishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash doirasida Qo'mita xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reyestrda kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

V. O'rganish natijalarini rasmiylashtirish

26. O'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha ijrochi ushbu Yo'riqnomaga 3-ilovada keltirilgan shaklda xulosa tuzadi. Kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosaga ijrochi o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

27. Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek, affillanganlik va o'zaro manfaatdorlik alomatlari aniqlangan taqdirda ijrochi uni tartibga solish zaruriyati to'g'risida choralarni ko'rish bo'yicha Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taklif kiritadi. O'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosada aks ettiriladi.

28. Xatar aniqlanganda ijrochi kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan kontragent bilan ishlash bo'yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi.

29. Ijrochi kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosani Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taqdim etadi. Xarid komissiyasi olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to'g'risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, bu haqda xarid komissiyasi yoki kontragent bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

30. Kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to'g'risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo'yicha kelishish va to'lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo'shib qo'yiladi.

31. O'rganish natijalari to'g'risidagi xulosa chiqqanidan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay Ijrochi bu haqidagi ma'lumotni Kontragentlarni o'rganish reyestriga kiriti uchun Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasiga taqdim etadi, Kontragentlarni o'rganish reyestri ushbu yo'riqnomaning 4-ilovasiga muvofiq shaklda boshqarma tomonidan yuritiladi.

32. Kontragentlarni o'rganish reyestri va kontragentlarni o'rganish natijalari, shuningdek, tashabbuskorning xizmat xati, kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar kontragent bilan shartnoma munosabatlari to'xtatilgan kundan boshlab kamida 3 (uch) yil Qo'mitaning Ichki audit, korrupsiyaga qarshi komplayens va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish boshqarmasida saqlanadi.

33. Kontragentlarni o'rganish reyestri va kontragentlarni o'rganish natijalari, shuningdek, tashabbuskorning xizmat xati, kontragentni o'rganish natijalari to'g'risidagi xulosa, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar konfidensial bo'lib, Qo'mita xodimlariga hamda xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

VI. Yakuniy qoida

34. Kontragentlarni o'rganish jarayoni doimiy ravishda Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi ichki Komissiyasi tomonidan monitoring qilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalarida kontragentlarni o'rganishga oid
Yo'riqnomaga
1-ilova

Yakuniy benefitsiarlar to'g'risida _____

(xaridlar ishtirokchisi) *

MA'LUMOTNOMA

№	F.I.Sh.	Tug'ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta'sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta'sischi/ yakuniy benefitsiar bo'lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta'sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

**so'nggi ikki yil uchun to'ldiriladi*

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

Xarid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning lavozimi _____

Ma'lumotnoma tuzilgan

sana _____

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalarida kontragentlarni o‘rganishga oid
Yo‘riqnomaga
2-ilova

Kontragentlarni o‘rganish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro‘yxati- <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki WorldCheck ma’lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro‘yxat ijrochi tomonidan o‘rganish uchun tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarur bo‘lganda kengaytirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga
qarshi kurashish qo‘mitasi markaziy
apparati, hududiy boshqarmalari va
idoraviy mansub tuzilmalarida
kontragentlarni o‘rganishga oid
Yo‘riqnomaga
3-ilova

Kontragentni o‘rganish haqidagi xulosa

1.	Ishtirokchining ismi	_____			
2.	STIR	_____			
3.	Ro‘yxatga olingan sana	_____			
4.	Yuridik va amaldagi manzili	_____			
5.	Rahbarning FISH	_____			
6.	Ta‘sischilarning FISH	_____			
7.	Yakuniy benefitsiarlarning FISH	_____			
8.	Ishtirokchi tadbirkorlik subyektlarining Yagona Davlat reyestrda bor	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
9.	Ishtirokchi imzo chekuvchi shartnoma tuzishga haqli	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzdorliklarning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
12.	Ishtirokchiga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), to‘lovga qobilyatsizligining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
13.	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ishtirokchi haqida yozuvning yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>
14.	Qo‘mita tizimida ishtirokchi bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasining yo‘qligi	<i>Ha</i>	<input checked="" type="checkbox"/>	<i>Yo‘q</i>	<input checked="" type="checkbox"/>

- | | | | | | |
|-----|---|--|-------------------------------------|-------------|-------------------------------------|
| 15. | Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan | <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
| 16. | Manfaatlar to'qnashuvi / ishtirokchining Qo'mita tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida ma'lumot yo'qligi | <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
| 17. | Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish chora-tadbirlari | Manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish chora-tadbirlari tavsifi | | | |
| 18. | Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma'lumotlar | Mavjud emas / Manba: [havola], [Xarid jarayonlari ishtirokchisining korrupsiyaga oidi qoidabuzarligi/poraxo'rligi tavsifi] | | | |
| 19. | Ish sohasidagi obro'sining salbiy omillari ehtimoli haqida ma'lumotlar | Mavjud emas / Manba: [havola], [ishchanlik obro'sining salbiy omillari tavsifi] | | | |
| 20. | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hujjatlarning mavjudligi (veb-saytda taqdim etilgan yoki mavjud) | <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
| 21. | Ishtirokchining sayti | Mavjud emas/ Saytning manzili: [havola], faol / faol emas | | | |
| 22. | Ishtirokchi mavjudligi muddati (yillarda) | | | | |
| 23. | Ishtirokchining moliyaviy, moddiy, texnik, kadrlar va boshqa resurslari miqdori shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli | <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |
| 24. | Ishtirokchi o'rganish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan | <i>Ha</i> | <input checked="" type="checkbox"/> | <i>Yo'q</i> | <input checked="" type="checkbox"/> |

Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmaganlarini ko'rsating:

25. Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar
- a) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
- b) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
- v) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]
- g) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi] va b.

Xatarlar aniqlanganligini (ha, yo'q) va, agar shunday bo'lsa, qanday xatarlar va ularni qanday kamaytirish mumkinligini ko'rsating

O'rganish natijalari asosida asosiy xulosalar va kuzatishlar

Xarid jarayoni ishtirokchisini o'rganishni amalga oshirgan xodim haqida ma'lumotlar

F.I.Sh.

Lavozimi

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo
